

PANJARA PAYVVANDLASH TEXNOLOGIYASI

*Igamberdiyev Madaminjon Quchqarboyevich**TMJ kafedrasи katta o'qituvchisi**Qosimov Ilhomjon Qutbiddin o'g'li**AndMI "TMJ" yo'nalishi 3-kurs 14-20 guruh talabasi*

Kirish. Payvandlash – metallar, qotishmalar va turli materiallarni plastik deformatsiyalash yoki birikilayotganqismlar orasini qizdirish bilan atomlararo birikish natijasida ajralmas birikma hosil qiluvchi texnologik jarayondir.

Atomlararo kuchlar ta'siri natijasida birikmalar hosil qilish jarayoniga materiallarni payvandlash deyiladi. Ma'lum bo'lishicha detall metalining yuzadagi atomlari, erkin to'yinmagan aloqalari mavjud, bular atomlararo kuch ta'siri masofasida bo'lgan har xil atom va molekulalarni o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. Panjara payvandlashda asosan yoyli dastakli payvandlash usulidan foydalaniladi. **Yoyli dastakli payvandlash** – yoyli payvandlashda, yoy yonishi, elektrod uzatilishi va siljitishi qo'lida bajariladi.

Yoyli dastakli payvandlashda, yoy yonishi, payvandlash davrida uni ushlab turish, payvandlanayotgan yuza bo'yicha siljitishni payvandchi qo'lida bajaradi. Normal yoy uzunligi elektrod diametridan 0,5 – 1,1 ga oshmaydi. Elektrod diametri 3- 6 mm ni tashkil etadi. Payvandlash ishlarining asosiy hajmini 90-350 A va 18-30 V kuchlanishda bajariladi.

Yoy dastakli payvandlash uchun metall qoplamali elektrodning metall o'zagiga maxsus qoplama qoplangan bo'ladi.

Yoy bilan qo'lida payvandlash uchun quyidagi o'lchamlardagi payvandlash elektrodlari tayyorlanadi. Barcha turdag'i elektrodlarga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- yoyning turg'un yonishini va chokning yaxshi shakllanishini ta'minlash;

- payvand chok metallini berilgan kimyoviy tarkibda olish;

- elektrod sterjeni va qoplamaning bir tekis hamda sokin suyuqlanishini ta'minlash;

- elektrod metalini minimal sachratish va payvandlashning yuqori unumdorligini ta'minlash;

- shlakning oson ajralishi va qoplama larning yetarlicha mustahkam bo'lishi;

- ma'lum vaqt oralig'ida elektrodlarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalalarining saqlanishi;

- tayyorlash va payvandlash vaqtida zaharliligi minimal bo'lishi kerak.

Xulosa

Panjaralarni tayyorlashda yoyli dastakli payvandlash usulidan foydalaniladi.

Yoyli dastakli payvandlash – yoyli payvandlashda, yoy yonishi, elektrod uzatilishi va siljitishi qo'llda bajariladi. Bu usul payvandlashdagi asosiy usullardan biri hisoblanadi va keng qo'llaniladi.

Panjaralar bizga offislar, axoli uy joylari, bog'cha, maktab kabi joylarni zamonaviy ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.X. Xoshimov, Sh. Yo'ldashev. „Payvandlash konstruksiyalarini ishlab chiqarish” fani bo'yicha „Texnologik mashinalar va jihozlar” yo'nalishi uchun ma'ruzalar matni. AndMI. Andijon 2017-y.
2. Abralov M.A. Dunyashin N.S., Abralov M.M., Ermatov Z.D. „Eritb payvandlash texnologiyasi va jihozlari”. Voris, 2007
3. Sh. Sodiqova, Sh. Otajonov , M. Qurbonov „Lazerlar va ularning amalyotdagi o'rni”.
4. Abralov M.A., Abralov M.M. „Payvandlash jarayonlarining nazariyasi”.